

Malaka Oshirish Jarayonida Tarbiyachilarni Inklyuziv Faoliyatga Tayyorlashning Innovasion Usul, Shakl Va Texnologiyalari

Umarova Zuhra Madiyarbekovna¹

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash alohida o'rin tutadi. So'ngi o'n yillarda barcha yosh guruhlaridagi bolalarning salomatlik holatida doimiy salbiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Patologiyaning og'ir shakllari chastotasi ortib bormoqda, bu ma'lum darajada imkoniyati cheklangan bolalar sonining oshishiga yordam berdi. Imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga ijobiy integrasiyalashuv jarayoni hozirgi kunda murakkab bosqichlardan biridir. Ta'lim sohasidagi integrasion jarayonlarga qaramay, bunday bolalarni o'qitish muammosi murakkabligicha qolib kelmoqda. Nogiron bolalar ta'limida ustuvor yo'nalish-bu barcha bolalarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan barcha uchun ta'limning mavjudligini nazarda tutadigan umumiy ta'limning bir qismi sifatida belgilangan inklyuziv ta'limni joriy etishdir. Asosiy muammolardan biri pedagoglarni inklyuziv ta'limda tarbiyalanuvchilar bilan ishlashga tayyorlash hisoblanadi. Amaliyotga jadal kirib kelayotgan inklyuziv ta'lim ko'plab murakkab savollar va yangi muammolarni tug'dirmoqda. Boy tajribaga ega xorijiy ta'lim jarayonini o'rganib jamiyatimizga tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, ijtimoiylashuv, texnologiya, dizayner, motivator.

Kirish. Zamonaviy ta'lim sharoitlarda inklyuziv ta'lim sohasida yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni hamda ijodiy salohiyatni talab etadi. Pedagog tarbiyalanuvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etibgina qolmay, balki ularni o'z ijodiy salohiyatini rivojlantirishga ham tayyorlashi lozim. Redagog har bir tarbiyalanuvchining psixologik tomondan yondoshishga intilishi kasbiy muvaffaqiyatning asosi hisoblanadi.

M.R.Isxakova² fikricha, "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining malakasini oshirish jarayonini andragogik va jihatdan yangilash, o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslangan holda takomillashtirish maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan transformatsiyalash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi". Darhaqiqat andragogikaning asosiy vazifasi shundan iboratki, u katta yoshdagi insonga o'ziga kerak bo'lgan axborotni qabul qilish, ma'lumot olish va o'z sohasini qayta ko'rib chiqish imkoniyatini yaratib beradi. Andragog uchun eng zarur tushuncha bu, katta yoshli insonni ta'limning turli tashkiliy shakllariga jalb etish yoki mavjud ishlab chiqarishni, uzluksiz ta'lim tizimi orqali yuksaltirish ishidagi ishtirokini ta'minlashdir.

O'.M.Asqarova, M .A. Abdullaeva, M.Boltaevalar tomonidan malaka oshirish tizimida o'qituvchilar oldida quyidagi andragogik vazifalar belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- tinglovchilarni yakka va umumiy tarzda tashxisdan o'tkazish (o'quv motivi darajasi, rsixofiziologik va ijtimoiy rsixologik xususiyatlar);
- o'qitish tartibi va yo'nalishini belgilab olishga yordam berish;
- o'qitish shart-sharoitlariga moslashib olish uchun ko'maklashish;
- shaxsiy va jixatdan o'sishga erishish shart-sharoitlari yaratib berish;
- ta'lim jarayonida sub'ektlarning o'zaro xamkoriidagi faoliyatini tashkil etish;

¹ MTTDMQTMOI katta o'qituvchisi

² М.Р. Исхакова. Андрагогик ва ўз-ўзини ривожлантиришга ёўналтирилган ёндашувлар асосида мактабгача таълим ташкilotлари педагогларининг малакасини ошириш жараёнини такомиллаштириш. Дисс. Т.:2023- 195-бет. 53-б.



- har bir tinglovchiga o‘z fikrlarini bildirish, o‘zni namoyon eta olish imkoniyatini berish;
- malaka oshirishdan muayyan bir yangilikni olish va kelgusi faoliyatida amaliyotga tadbiq etish kafolatini berish;
- tinglovchilarga psixologik yordam ko‘rsatish, ularga ta‘lim jarayonidan yana kasbiy faoliyatga qaytishlari uchun ijodiy ko‘tarinki ruh berish.

G.N.Ibragimova bo‘lajak pedagog tarbiyachilarning maktabgacha tashkilotlarida innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha quyidagi ish mexanizmini ishlab chiqqan. Ya‘ni, ijobiy munosabat va bo‘lajak pedagog tarbiyachi shaxsining innovatsion kasbiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish; bo‘lajak pedagog tarbiyachining kasbiy ko‘nikmasi va malakasini oshirish uchun shar-sharoit yaratish; innovatsion tarkibiy bo‘linmalarni yaratish va ularning faoliyatini boshqarish; innovatsion kasbiy faoliyatni monitoring qilishning yagona tizimini yaratish; innovatsion tajribalarni aniqlash va tarqatish; bo‘lajak redagog tarbiyachining innovatsion kasbiy faoliyatini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish va ulardan foydalanish. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida innovatsiyalarni tatbiq etishni qo‘llab-quvvatlash uchun ma‘lum shart-sharoitlarni yaratishdan tashqari, bo‘lajak pedagog tarbiyachilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda ajralib turadigan tarkibiy qismlarning mohiyatini tushuntirish kerak.

Ushbu tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi³:

- mazkur faoliyatga kirishish motivinin mavjudligi;
- ta‘lim natijalariga qo‘yiladigan zamonaviy me‘yoriy talablar, o‘qitishning innovatsion modellari va texnologiyalari to‘g‘risida bilimlar to‘plami;
- bo‘lajak pedagog tarbiyachi egalik qiladigan ushbu faoliyatning muammolari va bilimlarini, ya‘ni, pedagogik innovatsiya sohasidagi kompetensiya. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilarining pedagogik faoliyatida inklyuziv ta‘limni joriy etish zamonaviy usullardan foydalanishni taqozo etadi. Shu boisdan malaka oshirish jarayonida ularni innovatsion usullarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

N.S.Mo‘minovaning tadqiqot ishi kompetentli yondashuvning amalga oshirilishi mehnat bozorida raqobatbardosh, aralash bilim sohalariga yo‘naltirilgan, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha jahon standartlari darajasida samarali ishlashga qodir, uzluksiz kasbiy o‘shishga tayyor, ijtimoiy va kasbiy xarakatchanligi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Tarbiyachi-pedagog tomonidan bajariladigan rollarning xilma-xilligi va u faoliyatda egallab turgan pozitsiyasi mutaxassis shaxsining har tomonlama rivojlanishiga hissa qo‘shadi, uning aqliy faoliyati tizimli xususiyat kasb etadi, fikrlash va xarakatlarining moslashuvchanligi rivojlanadi.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi 929-son "O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim vazirligi to‘g‘risida"gi Nizomni hamda "Maktabgacha ta‘lim muassasalari rahbar va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ustavini tasdiqlash haqida"gi qarorida maktabgacha ta‘lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va joriy etish; o‘qitishning zamonaviy ilg‘or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish orqali tarbiyalanuvchilarning har tomonlama kamol topishini ta‘minlash; zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, samarali shakllar hamda usullardan foydalanishni, shu jumladan, tarbiyalanuvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etishda ular bilan yakka tartibdagi ishlarni ta‘minlashga ko‘maklashish kabi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Alohida yordamga muhtoj bolalarga nisbatan g‘amxo‘rlik, ularning huquqlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim-tarbiya jarayonini bu bolalarning ehtiyoji va qobiliyatiga mos ravishda tashkil etish, sog‘lom jamiyatga tenglashtirish o‘ta dolzarb masalalaridan biridir. Hozirgi kunda Respublikamizda maktabgacha yoshdagi alohida yordamga muhtoj bolalarning ta‘lim olishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan bo‘lib, ushbu ta‘lim tashkilotlarida mazkur toifadagi bolalar uchun barcha shart-sharoitlar


3 Ўша асар.167-168 бетлар.



mavjud. Ammo ko‘rlab sabablarga ko‘ra ayrim imkoniyati cheklangan bolalar uy sharoitida tarbiyalanmoqdalar, yoki ayrimlari esa batamom maktabgacha ta‘lim bilan qamrilmagan.

Imkoniyati cheklangan bolalarda hayotiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish orqali har tomonlama rivojlantiriladi. Biroq ularda ijtimoiylashuv jarayoni qiyin kechishi mumkin. Bu muammoni bartaraf etish tarbiyachining yuksak mahorati, chuqur bilimi va kasbiy kompetentligiga bog‘liq. Shuning uchun ularni inklyuziv faoliyatga tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish taqozo etiladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarining alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish shakllari quyidagilardan iborat:



Ta‘limning ijtimoiylashuvi jarayonlarida faoliyat yuritayotgan har bir tarbiyachilar bolalar kamolotini ta‘minlash o‘z oldilaridagi muhim vazifa ekanligini teran his qilishlari, ta‘lim-tarbiya ishlarini sifatli va samarali tashkil etishlari, natijaviylikka jiddiy e‘tibor qaratishlari talab etiladi. Agarda tarbiyachi guruhda sof psixologik muhit yaratmasa yoki bolalarni shaxs sifatida hurmat qilmasa, ta‘lim maqsadi amalga oshmay qoladi, faoliyati davomida ta‘limiy-tarbiyaviy maqsadlarga erishishda qiyinchiliklar yuz beradi.

Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan korreksion ta‘limiy-tarbiyaviy-rivojlantiruvchi ishlarni olib borish, ijtimoiy jamiyatga erta moslashtirish, imkoniyatlaridan foydalanib o‘z-o‘ziga xizmat qila oladigan qilib voyaga yetkazish uchun qulay muhit yaratilsa, bolalarning ruhiy va jismoniy sog‘lomligi bo‘yicha ijobiy natijalarga erishiladi. Bolalarda ijobiy hissiy holat ro‘y beradi, ular ta‘lim-tarbiya jarayonlaridan qoniqish hosil qiladilar, shundagina ularning ta‘lim-tarbiya maskaniga o‘z xohishi bilan kelishligiga erishiladi. Tarbiyachilar o‘quv-tarbiyaviy faoliyatida bolalarning turli jismoniy ehtiyojlari, yakka xususiyatlari, ularning qobiliyatlari, o‘qitish usullari va ta‘lim bosqichlaridagi farqlarni aniqlaydi hamda ularning imkoniyatlari, o‘zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda, tabaqalashtirilgan ta‘lim-tarbiya tizimini tashkil etadi.

Tarbiyachilar bolalarga yordamchi bo‘lib harakat qiladilar, rivojlanayotgan muhit, rivojlanish markazlarini tashkil etadilar va har bir bolaning individual rivojlanishini hisobga oluvchi tadbirlarni rejalashtiradilar. Kundalik muntazam turli xil guruhlarini o‘z ichiga olishi kerak: old (ertalab doira), kichik guruhlarda va yakka tartibda, redagog rahbarligida yoki mustaqil ravishda. Maktabgacha ta‘limda ta‘lim dasturini ishlab chiqishning muhimligi-bolalarning tanlov qilish, muammolarni hal qilish, atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lish, individual maqsadlarni belgilash va ularga erishish qobiliyatlarini egallashdir.



Barcha bolalar inklyuziv ta'lim amaliyotidan yaxshi foyda oladilar. Odatda alohida ehtiyoji bor bola rivojlanayotgan tengdosh bolalar bilan bir guruhda bo'lishi ularga taqlid qilishga, ular bilan muloqot qilishga, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi. Rivojlanayotgan bolalar alohida ehtiyojlari bor odamlar duch keladigan muammolarni tushunib boradilar. Ular boshqalarning ehtiyojlariga sezgir bo'lib, farqlarni yaxshiroq anglaydilar. Ular barcha odamlar muhim muammolarni bartaraf eta olishlariga va muvaffaqiyatga erishishlari mumkinligini bilib oladilar. Redagoglarga guruhida alohida ehtiyojli bolalar bo'lishi ham ma'nfaatlidir, bunda ular ta'lim uslublaridagi farqlarni kuzatishda malakaga ega bo'lishlari mumkin. Pedagogik ta'sir ko'rsatish bilvosita ta'lim tashkilotlaridagi jarayonlar qanday tashkil etilganiga bog'liq bo'lib, u bolalarning qiziqish va intilishlarini ta'minlashi lozim.

Tarbiyachi ta'lim-tarbiya maydonining dizayneri va quruvchisi bo'lib, shaxsning har tomonlama kamol topishini o'z zimmasiga oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qulay muhit yaratishning muhim jihatlaridan biri bolani individual ravishda uning qiziqishi, maqsadi, imkoniyatlariga muvofiq to'siqlarni yengib o'tishida qo'llab-quvvatlashdir. Tarbiyachining mahorat darajasi yuqori bo'lgandagina, bolaning yutuqlarga erishishi, ijobiy natijalarni qo'lga kiritishi, o'z-o'zini boshqarishi, kommunikativligi borasida samarali natijalarga erishishi mumkin.

Alohida yordamga muhtoj bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularning o'z qobiliyati, qiziqishi, imkoniyatlari va tarbiyachi tomonidan yaratilgan mazmunli pedagogik sharoit orqali yutuqlarga erishishni ta'minlaydi. Intellektual jihatdan bolaning rivojlanishi o'zining fikrlash faoliyati va natijaga erishganidan qoniqish hosil qilishida ko'rinadi. Ta'limiy faoliyatda bolalar uchun qulaylik yaratish, turli faoliyatlarning o'zaro almashinuvi, faoliyat turini tanlash, shakllarni belgilash, o'z imkoniyatlariga ishongan holda metodlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Tarbiyachi motivator vazifasini ham bajaradi. Ya'ni bolani qo'llab-quvvatlaydi, yordam ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida tarbiyachining fasilitatorlik vazifasi bola bilan ijobiy muloqot o'rnatish, biron bir faoliyat bilan shug'ullanayotganida uni ruhan qo'llab turishdan iborat. Biroq amaliy tajribalarimiz shuni ko'rsatdiki, tarbiyachilar faol harakatlarni to'g'ri tashkil eta olmaydilar, bolalar ruhiyati, qiziqishi va ehtiyojlarini anglay olmaydilar, natijada, bolalar bilan ijobiy muloqot o'rnatish olmaydilar, bor imkoniyatlar qo'ldan boy beriladi. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotida uning uzluksiz rivojlanishiga imkoniyat tug'diradigan faoliyat bilan shug'ullanadi. Bu faoliyat, ma'juziy ma'noda, bir rog'ona ko'tarilish imkoniyatidir. Zero, rivojlanishdan oldinda borayotgan ta'limgina samaralidir. Ayni shu omil rivojlanishning yaqin hududidagi boshqa funksiyalarning namoyon bo'lishiga asosdir. Pedagogika ortga emas, bola rivojlanishining ertangi kuniga qarab yo'nalish olishi kerak degan fikr bilan tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar hamkorligida o'zaro faollik muhimligini ta'kidlaydi.

Har bir texnologiyani o'tkazishning o'ziga xos vazifa va bosqichlari mavjud.

1-bosqich. Tanishuv va kutiladigan natijalarni aniqlash bosqichi.
Bunda o'quv xonasida sog'lom raqobat yaratiladi

2-bosqich. Tinglovchilarning erkin va faol ishtiroki ta'minlanadi
yuzaga keltiriladi

3-bosqich. O'quv jarayoniga yakun yasash va qayta aloqa o'rnatish



Tarbiyachilarda ijodiy potensial izlanish faoliyati orqali rivojlanadi va faollashadi. Tarbiyachida muammoni qo'yish, uni turlicha yo'llar bilan yechish, baholash va natijalarni asoslash malakasi shakllanadi.

“Uchlikda o'rganamiz” texnologiyasi asosida “Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishning maqsad va vazifalari” mavzusida o'quv mashg'uloti o'tkazildi. Ushbu texnologiya asosida tarbiyachilarda qiyosiy tahlil, solishtirish, izlanuvchanlik, topqirlik malakalari shakllantirildi.

Darsning maqsadi: inklyuziv ta'limni mazmun mohiyati, imkoniyati cheklangan bolalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini taxlil qilish hamda ijodiylikni rivojlantirish.

Jihozlar va materiallar: o'quv uslubiy majmua, proektor, tarqatma materiallar, marker, vatman,skoch.

Ta'limiy faoliyatning borishi:

dunyo miqyosida inklyuziv ta'limga oid videolavha namoyish etiladi.

videolavha haqida tinglovchilarning fikrlari eshitiladi.

Mamlakatimizda alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limi haqida ma'lumot beriladi.

Nima uchun aynan mazkur mavzu dolzarb ekanligi haqida munozara o'tkaziladi.

Maktabgacha ta'lim amaliyotidagi imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash bo'yicha munozara o'tkaziladi.

Mashg'ulotning borishi.

1-qadam. Pedagog tomonidan ”Uchlikda o'rganamiz” texnologiyasi mazmuni tushuntiriladi.

2- qadam. Tinglovchilar ixtiyoriy ravishda uchta kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruhga tarqatma materiallar (chizmalar) berilib, vaqt belgilandi.

3- qadam. Ishtirokchilar jamoa bo'lib quyidagi shaklni to'ldiradi.



Topshiriqni bajarish jarayonida tinglovchilarga inklyuziv ta'limga doir tarqatma material beriladi. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash dolzarbligi yozma ravishda tahlil qilinadi.

4-qadam. Guruh ishtirokchilaridan biri topshiriqni taqdimot qiladi.

5-qadam. O'qituvchi tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan inklyuziv faoliyatga oid videolavha namoyish etiladi.




6- qadam. Videolavha bo'yicha tinglovchilar o'z munosabatini bildiradi. Bugungi kunda inklyuziv yondashuv borasidagi muammo va yechimlar, istiqboldagi rejalar bo'yicha fikrlar umumlashtiriladi.

7-qadam. Faol guruh ishtirokchilari rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa: Rivojlanishda jismoniy yoki psixologik nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim - tarbiyasi bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish.

"Inklyuziv ta'limda tarbiyachining roli" mavzusida "Olti pog'ona" texnologiyaci tatbiq etildi.



Darsning maqsadi: Tinglovchilarni inklyuziv ta'limni tashkil etishda tarbiyachining roli muhim ekanligini tushuntirish, ularning bilim va malakalarini rivojlantirish.

Darsning borishi: O'qituvchi tomonidan mavzu e'lon qilinadi. Texnologiya quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1-Esga tushirish. Umumturdagi tashkilotlarida ta'lim-tarbiya olayotgan maxsus ta'limga muhtoj tarbiyalanuvchilarga yordam ko'rsatishga doir qanday amaliy ishlarni bilaciz? Savolga har bir tinglovchi individual ravishda javob beradi.

2-Tushunish. Tinglovchilar pedagogik jarayonni individuallashtirish bo'yicha shaxsiy tajribalarini bayon etadi. Bunda tavsifa etayotgan g'oyalarni tasniflab, izohlab beradi.

3-Axborot bilan ishlash. Ishtirokchilar kasbiy mahoratni oshirishga oid usul va texnologiya, didaktik materiallar izlaydi.

4-Tahlil qilish. Tarbiyachilar inklyuziv faoliyatni tashkil etishga oid o'z xududidagi ilg'or tajribalar haqida ma'lumot beradi va tahlil qilinadi.

5-Baholash. Ishtirokchilar bir-birlarining fikr va g'oyalarni baholaydi hamda o'z munosabatini bildiradi. G'oya yaratuvchi tinglovchi o'z pozitsiyacini himoya qiladi.



6-Yaratish. Ishtirokchilar inklyuziv faoliyatni tashkil etishning metodik jihatlarini o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqib ishlab chiqadi va taqdim etadi. Dars yakunida professor-o‘qituvchi tomonidan imkoniyati cheklangan bolalar ta‘limiga oid tajribalar video taqdimot shaklida namoyish qilinadi.

“Qutqaruv kemasi” texnologiyasi “Alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarni aniqlash va ularni inklyuziv ta‘limga jalb etish” mavzusida tatbiq etildi. Ushbu texnologiya tinglovchilarning maqsadni aniqlashga hamda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga tayyorlaydi. Natijada inklyuziv ta‘limning mohiyatini tahlil qilishni o‘rganadi.

Darsning maqsadi: Tinglovchilarga imkoniyati cheklangan bolalarni aniqlash va ular bilan ishlash yo‘llarini o‘rgatish.

Kerakli jihozlar: tor yo‘lak uchun uzun lentalar, kema maketi, proyektor, tarqatma materiallar.

Darsning borishi: Pedagog tomonidan mavzu e‘lon qilinadi. Texnologiya quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- Tinglovchilarga turli xolatga ega bo‘lgan bolalar roli beriladi (nutqida nuqsoni bor, kar va zaif eshituvchi, ko‘zi ojiz, tayanch harakati buzilgan v.x).
- professor-o‘qituvchi tinglovchilarga “Tasavvur qilinglar dengizda dovul boshlandi. Qutqaruv kemasi yordamga keldi, biroq kemaga chiqish yo‘li judayam tor va uzun. Sizlar shu yo‘lakdan o‘zaro kelishib, kemaga chiqishingiz kerak” deb aytadi.
- Tarbiyachilar yo‘lakdan o‘tishga xarakat qiladi. O‘tib bo‘lgach, o‘zini xissiyotlarini so‘zlab beradi.
- Pedagog tomonidan ta‘lim berishda har bir shaxsga ya‘ni bolalarga to‘g‘ri va oqilana yondasha olish zarurligini tushuntiradi. Tarbiyalanuvchilar turli imkoniyatga ega bo‘lsada bilim olish huquqiga ega ekanligi haqida so‘z yuritiladi. Xususan maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar ta‘lim-tarbiyasida xam mazur jarayon tashkil etilishi lozim.

1-qadam. Qolgan ishtirokchilar rol ijro etayotgan tarbiyachilarni kuzatadi.

2-qadam. Tarbiyachilarni kemaga o‘tish yo‘lidagi holatlari tahlil qilinadi. Turli toifadagi bolalarning cheklangan imkoniyatlariga ko‘ra yondashish zarurligi muhokama qilinadi.

3-qadam. Tinglovchilar to‘rtta kichik guruhga bo‘linadi va pedagogik vaziyatlar tarqatiladi, muhokama o‘tkaziladi. Ishtirokchilar to‘rtta holatdagi bolalar bilan ishlash yo‘llarini aniqlaydi.

1-vaziyat. Madijonov Jahongir to‘rt yosh, ismini biladi va oila a‘zolarini taniydi. Mustaqil ovqatlanadi hamda o‘zi mustaqil kiyinishga harakat qiladi. Hojatga chiqadi. Sevimli o‘yinchoqlari bilan o‘ynaydi va o‘lardan maqsadli foydalanadi. Mashg‘ulotlarga qiziqish bildiradi diqqatini jamlay olmaydi, xotirasi sust, ijtimoiy ko‘nikmalar mavjud. So‘zlarga taqlid qiladi lug‘atida soda so‘zlar mavjud. Bilish jarayonlari: Ranglarni, geometrik shakllarni farqlay olmaydi, so‘zlarni umumlashtira olmaydi. Kattalar va bolalar bilan muloqotga kirishadi. Berilgan torshiriqlarni torshiradi. Tashxis: Yengil darajadagi aqliy zaiflik.

2-vaziyat. Salimov Samir olti yosh. Umumiy turdagi Maktagacha ta‘lim tashkiloti tariyalanuvchisi. Bolada imperessiv lug‘at bor, eksreresiv lug‘at yo‘q. Eshituv va ko‘ruv qobiliyati normada. Aqliy qobiliyati me‘yorida. Til tonusda, jag‘lar normada, tishlar normada, tanglay normada, lab harakatlari sustlashgan. Nutqi yo‘q, tovushlarni qaytaradi. O‘ziga qaratilgan nutqni to‘liq tushunadi. Umumiy matorika normada. Fazoda mo‘ljal olishga qiynaladi. Mayda qo‘l motorikasi me‘yorida emas. Tashxis: Motor alaliya

3-vaziyat. Bekmuradov Sultan yetti yosh. Lug‘at boyligi normada, ichki va tashqi lug‘at me‘yorida. Eshitish va ko‘rish qobiliyati me‘yorida. Bilish jarayonlari normada. Diqqati tarqoq, tili tonusda. Jag‘ tishlari va tanglay me‘yorida rivojlangan. Lab harakatari me‘yorida. Nutqni to‘liq tushunadi va javob beradi. Umumiy matorikasi me‘yorida emas, fazoda qiyn mo‘ljal oladi. Mayda qo‘l matorikasi me‘yorida emas. Bola s tovushini sh ga,r tovushini l ga almashtiradi. Bir joyda o‘tira olmaydi. Harakatlari sust, tez charchab qoladi. Xech nimaga qiziqmaydi. Kun davomida 6 soatdan ko‘p uxlamaydi. Tashxis: Dislaliya, SDVG.



4-vaziyat. O‘tkurov Bekzod 7 yosh. Lug‘at boyligi me‘yorida, ichki va tashqi lug‘at me‘yorida. Ovozi manqalangan, monaton. Eshitish va ko‘rish qobiliyati me‘yorida. Bilish jarayonlari yoshiga mos. Tili yo‘g‘on va uzun, tishlari va tanglay me‘yorida rivojlangan. Og‘izi doim ochiq, so‘lagi ko‘p oqib turadi. Til harakatlari me‘yorida emas. Tilini bir holatda ushlab tura olmaydi. O‘ziga qaratilgan nutqni to‘liq tushunadi. Umumiy matorika me‘yorida emas. Fazoda mo‘ljal olishda qiynaladi. Mayda qo‘l harakatlari me‘yorida emas. Mayda o‘yinchoqlar umuman o‘ynamaydi, qiziqmaydi. Qalam, ruchkani noto‘g‘ri ushlaydi. Bola nutqida sh, ch, r tovushlarini boshqa tovushlar bilan almashtiradi. Tashxis: Dizatriya

4-qadam. Pedagog tomonidan muhokama qilinayotgan to‘rtala vaziyat bo‘yicha metodik tavsiya beriladi.

MTT pedagoglari (defektolog, psixolog, logoped, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi) bilan hamkorlikda ishlash.

Ota-onalarga pedagogik-psixologik maslahat berish.

Tarbiyalanuvchilar o‘rtasida o‘zaro tushunish, mehr-oqibatni yo‘lga qo‘yish, yordam berish, xamnafas bo‘lish kabi sifatlarni shakllantirish.

Bolalarni jismoniy va ruhiy holatidan kelib chiqqan holda o‘quv materiallarini tatbiq etish.

5-qadam. Uyga vazifa. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida imkoniyati cheklangan bolalar uchun variativ mavzular ishlab chiqish.

“**Tarozi**” metodi. Mavzu: Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘limni tashkil etish talablari.

Darsning maqsadi: Tinglovchilarni maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘limni tashkil etish bo‘yicha bilimlarni rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: ikkita savatcha, stiker qog‘ozlar.

1-bosqich. Tinglovchilar ikkita katta guruhga ajratiladi. Ularga quyidagi topshiriq beriladi va vaqt belgilanadi.

1-guruh. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘limni joriy etishni ijobiy tomonlarini qayd qiladi.

2-guruh. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘limni joriy etishni kamchiliklarini aniqlaydi.

2-bosqich. Birinchi guruh o‘z fikrlarini taqdimot qiladi. Ikkinchi guruh esa, ularga savol bilan murojat qiladi.

3-bosqich. Ikkinchi guruh bolalarni inklyuziv ta‘limga jalb etishda uchraydigan mavjud muammolarni so‘zlab beradi.

4-bosqich. O‘qituvchi ishtirokchilarga qisqacha ma‘lumot beradi.

Tuman (shahar) maktabgacha ta‘lim bo‘limlari qoshidagi “Tibbiy psixologik-pedagogik komissiya” xulosasi bo‘lishi shart;

alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar sonini cheklash (2-3 nafar);

Ota-onalarni bola ta‘limiga jalb etish;

Tarbiyachining pedagoglar bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

“Ilk qadam” davlat dasturidagi mavzularni bolalar imkoniyatiga moslashtirish.

5-bosqich. Stol ustiga ikkita savatcha qo‘yiladi. Barcha tinglovchilarga stiker tarqatiladi va “tarafdorman yoki qarshiman” so‘zini yozish taklif etiladi. Birinchi savatchaga “tarafdorman” deb yozilgan qog‘ozlar solinadi. Ikkinchi savatchaga “qarshiman” so‘zi yozilgan stiker solinadi. O‘qituvchi tinglovchilar bilan birgalikda savatchaga solingan qog‘ozlarni tahlil qiladi. Natijalar asosida umumiy xulosa chiqariladi.



XULOSA. Xulosa natijalarining tahlilidan ma'lum bo'ldiki, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida tarbiyachilarning mustaqil ijodiy yondashishlari, o'zaro tajriba almashishlari va erkin fikrlashlari uchun imkoniyat yaratiladi. O'quv mashg'ulotlarida tarbiyachilarning faoliyatlarini tashkil qilishda uyushtirish, boshqarish, qiyoslash, umumlashtirish, baholash kabi jarayonlarga ehtiyoj seziladi. Tadqiqotimizda keltirilgan texnologiyalardan foydalanish tarbiyachilarning inklyuziv faoliyatga tayyorlash va pedagogik mahoratini oshirish jarayonida muayyan samaralarga erishish imokniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyotl Logopediya T-2007
2. Amirsadiova Sh.M. "Inklyuziv ta'lim-insonparvarlikka asoslangan ta'lim" // "Ijtimoiy inklyuziya: bolalar ijtimoiylashuvidagi yangi yo'nalishlar" mavzusidagi Xalqaro Konferensiya.T.: 54-55 bet
3. Алехина С.В. К вопросу оценки инклюзивного процесса в образовательной организации: пилотажное исследование / С.В. Алехина, Ю.В. Мельник, Е.В. Самсонова, А.Ю. Шеманов // Психолого-педагогические исследования. - 2019. - Том 11. - № 4. - С. 121-132. 2. Алехина С.В. Экспертная оценка параметров инклюзивного процесса в образовании [Электронный ресурс] /
4. Алекина С.В. О мониторинге инклюзивного процесса в образовании / С.В. Алехина // Материалы научно-практической конференции «Инклюзивное образование: методология, практика, технология» (ред. кол. С.В. Алехина и др.) - М.: МГППУ, 2011. - 244 с.
5. Алексеев С. Подготовка педагога к реализации инклюзивного образования / С. Алексеев // Вестник Екатеринбургского института им. Екатерины Великой. -2014. - № 3 (27). - С. 3-5.
6. Алехина С. В. Готовность педагогов как основной фактор успешности инклюзивного процесса в образовании / С. В. Алехина, М. Н. Алексеева, Е. Л. Агафонова // Психологическая наука и образование. - 2011. - № 1. - С. 8392.
7. Артюшенко, Н. П. Организационно-педагогические условия обучения детей с ограниченными возможностями здоровья средствами инклюзивного образования : автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01 / Н. П. Артюшенко. -Томск, 2010. - 23 с.
8. Беляева Л.А. Научно-методический журнал «**Специальное образование**» адресован специалистам, работающим с лицами, имеющими ограниченные возможности здоровья (ОВЗ), преподавателям вузов, студентам, аспирантам и слушателям, интересующимся проблемами изучения и образования людей с ОВЗ. Адрес редакции: 620091 Екатеринбург, пр. Космонавтов, 26, к. 116 E-mail: spсобr@usru.ru **Научные направления:** 5.8. Педагогика (5.8.1; 5.8.3)],
9. Бгажнокова И. М. Общее и специальное образование : пути к взаимодействию и интеграции / И. М. Бгажнокова. // Вопросы образования. -2006. - № 2. - С. 30-38.
10. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии/ В. П. Беспалько. -М.: Педагогика, 1989. -192 с.
11. Борисова Н.В. Социальная политика в области инклюзивного образования: контекст либерализации и российские реалии / Н. В. Борисова // Журнал исследований социальной политики. - 2006. - Т. 4, № 1. - С. 103-120.
12. Богданова Т.Г. Эвалюация как инструмент управления качеством инклюзивных процессов в образовании /Т.Г. Богданова, Н.М. Назарова// Специ-альное образование. - 2020. - № 3. - С. 24-39
13. Борисова Н. В. Инклюзивное образование / Н. В. Борисова, С. А. Прушинский. - Владимир : Транзит-икс, 2009. - 49 с.



14. Zaripova, S. (2024). METHODOLOGY-AN IMPORTANT FACTOR IN THE STUDY OF FOREIGN LANGUAGES. *Science and innovation*, 3(B1), 420-423.
15. Zaripova, S., & Chimberdiyeva, N. (2024, February). OG 'ZAKI SO 'ZLASH KO 'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 159-162).

